

TERI LEYSHMANIOZIDA CO₂-LAZERNING KLINIK AHAMIYATI

Sattarova Hilola Marimboy qizi

Urganch davlat tibbiyot instituti Dermatologiya bo'limi, Urganch, O'zbekiston.

Kalit so'zlar: *leyshmanioz, CO₂-lazer, ultrabinafsha terapiya, fototerapiya, fizioterapevtik usullar, regeneratsiya, teri infeksiyalari, parazitologiya, klinik samaradorlik, zamonaviy davolash texnologiyalari.*

KIRISH

Leyshmanioz – *Leishmania tropica* paraziti tomonidan qo'zg'atiluvchi surunkali infeksiyon kasallik bo'lib, u asosan teri va teri osti to'qimalarida yallig'lanish, yaralanish va chandiqli hosil bo'lishi bilan kechadi. So'nggi yillarda leyshmanioz kasalligining turli shakllari, ayniqsa, teri leyshmaniozi O'zbekistonning janubiy hududlarida keng tarqalgan infeksiyon kasalliklardan biri sifatida tibbiy muammoga aylanmoqda. Ushbu kasallik *Leishmania tropica* paraziti orqali yuzaga keladi va u ko'pincha surunkali yallig'lanish, yaralanish hamda chandiqli asoratlardan biri sifatida tibbiy muammoga aylanmoqda. Ushbu kasallik *Leishmania tropica* paraziti orqali yuzaga keladi va u ko'pincha surunkali yallig'lanish, yaralanish hamda chandiqli asoratlardan biri sifatida tibbiy muammoga aylanmoqda. An'anaviy farmakoterapiya (antimon preparatlari, antibiotiklar va antiseptiklar) bilan davolash ayrim hollarda yetarli samara bermaydi, bu esa yangi fizioterapevtik usullarni joriy etishni talab etadi.

So'nggi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, CO₂-lazer terapiyasi va ultrabinafsha nurlanish (UFO) terapiyasi infeksiyon jarayonni kamaytirish, to'qimalardagi regeneratsiyani tezlashtirish va relaps holatlarini kamaytirishda samarali bo'lishi mumkin. Shu sababli ushbu mavzu leyshmanioz kasalligini davolashda lazer va UFO texnologiyalarining kompleks qo'llanilishi imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganishga bag'ishlanadi.

Mavzuning maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi – leyshmanioz kasalligini davolashda CO₂-lazer va UFO terapiyasining klinik samaradorligini baholash hamda ularning patogenetik, regenerativ va immunokorrektiv ta'sir mexanizmlarini aniqlashdir.

Tadqiqot davomida lazer terapiyasining yallig'lanish o'choqlarini yo'qotish, regeneratsiyani tezlashtirish, mikrotsirkulyatsiyani yaxshilashdagi roli o'rganildi. Shuningdek, UFO terapiyasining antimikrob va immunostimulyatsion xususiyatlari orqali *Leishmania tropica* parazitiga qarshi ta'siri tahlil qilindi.

Yana bir muhim maqsad – an'anaviy davo usullari bilan CO₂-lazer va UFO terapiyasini kompleks tarzda qo'llash orqali davolash muddatini qisqartirish, qaytalanish holatlarini kamaytirish va chandiqli asoratlarning oldini olishdir.

Material va usullar

Tadqiqot 2023–2025-yillarda Respublika dermatovenerologiya ilmiy markazining infeksiyon dermatozlar bo'limida olib borildi. Umumiy hisobda leyshmanioz tashxisi qo'yilgan 60 nafar bemor (30 erkak, 30 ayol, 18–55 yosh oralig'ida) jalb qilindi.

Bemorlar uchta guruhga bo'lindi:

- I-guruh (20 nafar) – faqat an’anaviy davo olganlar;
- II-guruh (20 nafar) – CO₂-lazer terapiyasi bilan kompleks davo olganlar;
- III-guruh (20 nafar) – CO₂-lazer va UFO terapiyasi birgalikda qo’llanilganlar.

CO₂-lazer terapiyasi “Лазермед-01” apparati yordamida o’tkazilib, 10,6 mkm to’lqin uzunligida, quvvat zichligi 1,0–1,5 Vt/sm² da tanlandi. Har bir seans 3–5 daqiqa davom etib, davolash kursi 10–12 seansni tashkil etdi.

UFO terapiyasi esa “ОФК-03” apparati yordamida 0,5–1 biologik dozadan boshlab 2–3 dozagacha oshirilgan holda 10–15 seans davomida o’tkazildi.

Davolash samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- yara o’choqlarining bitish tezligi;
- og’riq, shish va qizarish darajasining kamayishi;
- mikroskopik tahlilda Leishmania tropica’ning yo’qolish holati;
- relaps chastotasi va umumiy davolanish muddati.

Statistik tahlil Student t-testi yordamida o’tkazilib, farqlar $p < 0,05$ darajada ishonchli deb qabul qilindi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari CO₂-lazer va UFO terapiyasining leishmanioz kasalligini davolashda yuqori samarali ekanligini ko’rsatdi. Lazer nurlari to’qimalarda yallig’lanishni kamaytirib, regeneratsiyani faollashtiradi, UFO esa parazitga qarshi bakterisid va immunostimulyatsion ta’sir ko’rsatadi.

Ushbu ikki usulni an’anaviy farmakoterapiya bilan birgalikda qo’llash davolanish muddatini o’rtacha 30–35 % ga qisqartirdi, relaps holatlarini kamaytirdi va chandiqli asoratlarning oldini oldi.

Shunday qilib, CO₂-lazer va UFO terapiyasini kompleks tarzda qo’llash leishmaniozning zamonaviy va klinik jihatdan samarali fizioterapevtik davolash usuli sifatida tavsiya etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Каримов А.А., Тожиев Ш.М. Дерматовенерологияда физиотерапия усуллари. – Тошкент: Тиббиёт, 2021. – 184 б.

2. Mamatov B.B., Rajabov N.N. Leyshmanioz va uning zamonaviy davolash usullari. – Toshkent: Ilm Ziyo Nashriyoti, 2022. – 156 bet.

3. Турдиматов Ш.Р., Ахмедов А.М. Лазерная терапия в комплексном лечении кожных инфекций. // Журнал клинической медицины и физиотерапии. – 2020. – №3. – С. 45–49.

4. Поляков И.В., Ким Л.С. Эффективность УФО-терапии при инфекционно-воспалительных заболеваниях кожи. // Российский журнал дерматологии и венерологии. – 2019. – №5. – С. 38–42.